

UDK 597.2

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZIL KITOBIGA KIRITILGAN VA ENDEMIK
BALIQ TURLARINING TAHLILI**

Teshajonova Maxliyo Marufjon qizi
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
Zohidov G`iyosiddin G`ulomiddin o`g`li
Toshpo`latov Islomjon
Akromova Mahliyo

Farg'ona davlat universiteti "Biologiya" yo'nalishi magistrantlari

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan hamda turli darajadagi endemik baliq turlarining tahlili keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Endemik tur, ixtiofauna, Qizil kitob, endemiklik darajasi.*

**ANALYSIS OF FISHES INCLUDED IN THE RED BOOK OF UZBEKISTAN AND
AT DIFFERENT LEVELS OF ENDEMICITY**

Annotation: *The article analyzes of the ichthyofauna endemic species included in the Red Book of Republic of Uzbekistan.*

Key words: *endemic species, ichthyofauna, Red Book, endemicity levels.*

Kirish. Atrof-muhitni ekologik jihatdan sog'lomlashtirish jarayonlarini uyg'unlashtirish va biologik xilma-xillikni muhofaza qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi biologik xilma-xilligini saqlash strategiyasi qabul qilingan. Qizil kitobni yuritish mazkur strategiyaning tarkibiy qismi bo'lib, biologik xilma-xillikni saqlash borasidagi harakatning navbatdagi bosqichidir. Qizil Kitob hayvonot olamini saqlash sohasidagi muhim milliy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy davlat hujjati bo'libgina qolmasdan, balki O'zbekiston Respublikasining xalqaro konvensiya va bitimlarni qabul qilish paytida o'z zimmasiga olgan majburiyatlarning ifodasi hamdir. Shuningdek, bir tomondan, hayvon turlarining tabiatda yo'q bo'lib ketishi jarayonining hujjati - shahodatnomasi bo'lsa, ikkinchi tomondan - ularni saqlab qolishni amalga oshirish rejalarining asosidir. Shu bilan birga u davlat va jamoat tashkilotlari, ilmiy muassasalar va aholi diqqatini yurtimiz tabiatini muhofaza qilish muammolariga jalb qiluvchi nashrdir [2]. Aynan Qizil Kitobga kiritilgan baliq turlarining suv havzalari bo'yicha tarqalishi hamda endemik baliqlarning oilalari va endemiklik darajasi bo'yicha tahlil o'tkazish ushbu tadqiqot ishining dolzarbligini belgilab beradi.

Material va uslubiyot. Tadqiqot uchun material turli yillar davomida respublikamiz suv havzalarida olib borilgan ixtiologik tadqiqotlarning natijalari bo'yicha yig'ilgan. O'zbekiston Respublikasi Qizil Kitobiga kiritilgan baliq turlari haqidagi ma'lumotlar O'zFA va O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan 2019-yil nashrga tayyorlab chiqarilgan O'zbekiston Qizil kitobining 2-jildidan to'plandi. Respublikamiz suv havzalarida tarqalgan turli darajadagi endemik baliq turlarining tahlili

Mipabdullayev I.M., Kuzmetov A.R., Qurbonov A.R. larning “O‘zbekiston baliqlari xilma-xilligi” nomli 2020-yilda chiqarilgan monografiyasidan [1] foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Respublikamiz suv havzalarida 80 ga yaqin baliq turi yashasa shundan 29 tasi turli darajadagi endemik turlar sanaladi (1-jadval). O‘lkamiz ixtiofaunasini endemiklik darajasi bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak jami endemik baliqlarning 21 tasi Orol havzasi endemigi, 1 tasi Amudaryo, 3 tasi Sirdaryo, 4 tasi Markaziy Osiyo endemigi sanaladi [3].

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan baliq turlarining ro‘yxati va endemik baliqlarning endemiklik darajasi

Taksonlar	Endemiklik darajasi				
	Orol havzasi	Markaziy Osiyo	Amudaryo	Sirdaryo	Qizil kitob
Bakra - <i>Acipenser nudiventris</i>					+
Sirdaryo qilquyrug‘i - <i>Pseudoscaphirhynchus fedchenkoi</i>	+				
Amudaryo katta qilquyrug‘i - <i>Pseudoscaphirhynchus kaufmanni</i>	+				
Amudaryo kichik qilquyrug‘i - <i>Pseudoscaphirhynchus hermanni</i>	+				
Amudaryo olabalg‘i - <i>Salmo trutta</i>			+		
Parrak - <i>Capoetobrama kuschakewitschi</i>	+				
Chiziqli tezsuzar - <i>Alburnus taeniatus</i>	+				
Toshkent yuzasuzari - <i>Alburnus oblongus</i>				+	
Oqmarka <i>Aspiolucius esocinus</i>	+				
Ko‘kbo‘yini - <i>Leuciscus idus</i>	+				
Zarafshon oq chebagi - <i>Leuciscus lehmani</i>	+				
Turkiston oq chebagi - <i>Petroleuciscus squalisculus</i>	+				
Qorako‘z - <i>Ballerus sapa</i>					
Turkiston qumbalg‘i - <i>Gobio lepidolaemus</i>	+				
Samarqand xramulyasi - <i>Capoeta steindachneri</i>	+				
Orol mo‘ylovdori - <i>Luciobarbus bracycephalus</i>	+				
Turkiston mo‘ylovdori - <i>Luciobarbus capito</i>	+				
Orol tikanagi - <i>Sabanejewia aurata aralensis</i>	+				
Turkiston laqqachasi - <i>Glyptosternum oschanini</i>		+			
Sharq tojli yalangbalig‘i - <i>Paracobitis longicauda</i>	+				
Amudaryo yalangbalig‘i - <i>Nemacheilus oxianus</i>	+				
Buxoro yalangbalig‘i - <i>Dzhunia amudarjensis</i>	+				
Kushakevich yalangbalig‘i - <i>Iskandaria kuschekewitschi</i>	+				
Tojik yalangbalig‘i - <i>Noemacheilus pardalis</i>	+				
Qo‘ng‘ir eshvoyi <i>Triplophysa labiata</i>		+			
Kulrang yalangbaliq - <i>Triplophysa dorsalis</i>	+				
Tibet eshvoyi <i>Triplophysa stoliczkai</i>		+			
Dog‘li eshvoyi <i>Triplophysa strauchi</i>		+			
Orol sanchari - <i>Pungitius platygaster</i>	+				
Chotqol toshbuqasi - <i>Cottus jaxartensis</i>				+	
Tupkiston toshbuqasi - <i>Cottus spinulosus</i>				+	

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki bakrasimonlardan 3 ta tur Orol havzasi endemigi hisoblansa karpsimonlardan 10 ta tur Orol havzasi va 1 ta tur Sirdaryo endemigiga mansub sanaladi. Losossimonlardan 1 ta tur Amudaryo endemigi bo'lsa tikanak eshvoylar oilasidan 1 ta tur Orol havzasi endemigi; eshvoylar oilasidan 6 ta tur Orol dengizi endemigi, 3 ta tur Markaziy Osiyo endemigi; tog' laqqachalari oilasidan 1 ta tur Markaziy Osiyo endemigi; tikanbaliqlar oilasidan 1 ta tur Orol havzasi endemigi; toshbuqabaliqlar oilasidan 2 ta tur Sirdaryo endemigi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Mipabdullayev I.M., Kuzmetov A.R., Qurbonov A.R. O'zbekiston baliqlari xilma-xilligi. Toshkent: "Classic" nashriyoti, 2020.
2. O'zbekiston Qizil kitobi. 2-jild, Toshkent 2019. O'zFA; O'zbekiston respublikasi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi. 392 bet.
3. Umarov F., Sharipova B., A'zamov A., Rahimova D. Norin daryosining O'zbekiston Respublikasi Qizil Kitobiga kiritilgan va turli endemiklik darajasidagi baliqlari tahlili. International scientific journal of Biruni. Volume 1, 2022/01. 121-126 bet.